

# **МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ**



*Илимий-методикалық журнал*

---

**2023**

**5/2-сан**

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы  
Жоқаргы Аттестация Комиссиясы Президиумының  
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.  
№01-044-санлы гүўалық берилген.*

**5/2-сан 2023**

*октябрь*

---

*Шөлкемлестіріушілер:*

*Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириу Министрлиги,  
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы*

**Редактор:  
А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**

Мақсет АЙЫМБЕТОВ  
Нағмет АЙЫМБЕТОВ  
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ  
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ  
Алишер АЛЛАМУРАТОВ  
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ  
Тўлқин АЛЛАЁРОВ  
Умида БАҲАДИРОВА  
Фархад БАБАШЕВ  
Гулзода БОЙМУРОДОВА  
Шахло БОТИРОВА  
Маманазар ДЖУМАЕВ  
Асқар ДЖУМАШЕВ  
Алишер ЖУМАНОВ  
Гўлнара ЖУМАШЕВА  
Холбой ИБРАГИМОВ  
Умида ИБРАГИМОВА  
Меруерт ПАЗЫЛОВА  
Асқарбай НИЯЗОВ  
Сабит НУРЖАНОВ

Уролбой МИРСАНОВ  
Нуржан МАТЧАНОВ  
Шукурулло МАРДОНОВ  
Бахтиёр РАХИМОВ  
Фурқат РАЖАБОВ  
Арзы ПАЗЫЛОВ  
Барлықбай ПРЕНОВ  
Феруза САПАЕВА  
Қаххор ТУРСУНОВ  
Нурзода ТОШЕВА  
Тажибай УТЕБАЕВ  
Амангелди КАМАЛОВ  
Ризамат ШОДИЕВ  
Зафар ЧОРШАНБИЕВ  
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ  
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ  
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ  
Гулрухсор ЭРГАСHEBA  
Гавхар ЭШЧАНОВА

## МАЗМУНЫ

### ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

<b>Мадалиев Я.Х.</b> Абай ижодий метросида адабий қарашлар .....	7
<b>Dosanov N.</b> O'zbek tilida izohlovchilarning leksik-semantik xususiyatlari .....	17
<b>Musurmankulova M.N.</b> Metaphorical rethinking architectural concepts .....	20
<b>Berdiev B.Ch.</b> Healthy lifestyle in the educational system in connection with belt wrestling .....	27
<b>Isaqova E.D.</b> The analysis of appearance of feelings in the english and uzbek languages .....	31

### ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

<b>Palwaniyazov M.</b> Xaliq pedagogikasiniń ájayip tárbiya qurali .....	40
<b>Radjarova Z.T., Mirzayeva G.Z.</b> Integratsiyalashgan ta'limning pedagoglarni tarbiyalashdagi afzalliklari .....	45
<b>Тўрақулов Б.Н.</b> Таълим муҳитида интеллект ва компетентлилик тушунчалари .....	49
<b>Abdujabbarova M. L., Davlatov O.G'.</b> Talabalarning axborot xavfsizligini ta'minlashda kompetensiya va kompetentlikning ahamiyati .....	56
<b>Азизова С.А.</b> Олий таълим муассасалари талабаларини медиа компетентлигини ривожлантиришда инновацион технологияларни ўрни .....	61
<b>Ismanova M. A.</b> Talabalarda kasbiy-kreativ ko'nikmalarni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati .....	66
<b>Tashpulatova D.M.</b> Maktab ta'limida tabiiy fanlarni integratsion o'qitish metodikasi .....	70
<b>Kuchkinov A.Yu.</b> Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida raqamli ta'lim orqali ekopedagogik kompetentligini rivojlanishida eko-steam yondashuvning imkoniyatlari .....	74
<b>Aktamov F.S.</b> Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlantirish omillari .....	80
<b>Quzmanova G.B.</b> O'quvchilarning ijtimoiy kompetentligini ijtimoiy tarmoqlar vositasida rivojlantirishda maktab umumiy fanlarining o'rni .....	88
<b>Tilavova S.B.</b> Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar orqali bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini steam yondashuv asosida takomillashtirish yo'llari .....	92
<b>Umarova Z.A.</b> Maktab ta'limida pedagogik konfliktlarning tarkibi va ularni bartaraf etish xususiyatlari .....	99
<b>Исламова Д.Б.</b> Тутинган ота-она ва бола билан ишлашда психологик мослашув методикалари тавсифи .....	106
<b>Xanbabayev X.I.</b> Raqamli kompetensiyani rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari .....	112
<b>Mirzayev A.M.</b> Harbiylashtirilgan ta'lim muassasalarida klaster yondashuv asosida kursantlarni belbog'li kurashga o'rgatish .....	118
<b>Абдурахимова Д.А.</b> Бўлажак офицерларда ҳарбий ватанпарварлик туйғусини ривожлантиришнинг миллий- маънавий ва ахлоқий асослари .....	125
<b>Azizova S.A.</b> Kredit tizimi asosida fanlararo integratsiyani rivojlantirish .....	131
<b>Эшбеков С.Ж.</b> Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш жараёнларини такомиллаштиришнинг самарали шакл, метод ва воситалари .....	134
<b>Эшбеков С.Ж.</b> Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш тизимини такомиллаштиришнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари .....	142
<b>Bozorov Z. Yu.</b> Ta'lim sifatini oshirish bugungi kunning dolzarb masalasidir .....	146
<b>Xujaniyozova O.R.</b> Muayyan yoshdagi maktab o'quvchilari bilan samarali ishlashda maktab psixologiyasi faoliyatining ahamiyati .....	150
<b>Xolmatova S. K.</b> Mustaqil ta'limni tashkil etishda interfaol ta'lim texnologiyalardan foydalanish .....	157
<b>Xolmatova S.K.</b> Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ishlarning ahamiyati .....	163
<b>Махкамов У.И., Тешақулова Б.Ш.</b> Бўлажак ўқитувчиларда педагогик маҳорат маданиятини ривожлантириш .....	167



## O‘QUVCHILARNING IJTIMOIIY KOMPETENTLIGINI IJTIMOIIY TARMOQLAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISHDA MAKTAB UMUMIY FANLARINING O‘RNI

*Quzmanova G.B.*

*pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Matematika o‘qitish metodikasi  
va geometriya” kafedrasi dotsenti*

**Tayanch so‘zlar:** o‘quvchilar, maktab, ijtimoiy, kompetentlik, ijtimoiy tarmoq, vosita, Google kitoblar, google akademiyasi, art Rrojest, madaniyat akademiya rivojlantirish.

**Ключевые слова:** учащиеся, школа, социальные, компетентность, социальная сеть, среда, google книги, академия Google, art rojest, культура академия развития.

**Key words:** students, school, social, competence, social network, environment, google books, google academy, art project, culture development academy.

Bunda e‘tibor maktab umumiy fanlarini o‘qitish hamda o‘quvchi shaxsini tarbiyalashga qaratilgan. Bu esa ta‘lim jarayonida yangi o‘qitish vosita va metodlarni joriy etishni taqozo etadi.

Bugungi taraqqiyot davrida internet ta‘lim uchun, barcha maktab o‘quvchilari hamda nogironlar ta‘lim olishi uchun katta maydon eshigini ochdi. Chunki bu erda o‘quvchi yoshlarni ta‘lim jarayoniga yanada qiziqtirish mumkin.

**Google kitoblar** 100 dan ortiq mamlakatlardagi 15 million kitoblardan foydalanish

**Google akademiyasi** turli ilmiy nashrdagi indekslangan jurnallar bilan tanishish

**Google Art Rrojest** orqali internetda 40 davlatdan 200 dan ortiq muzeylarga virtual sayohat qilish mumkin.

**Google madaniyat akademiyasi** tarixiy arxiv yordamida tarixni o‘rganishingiz mumkin hamda mamlakatlarning hozirgi va oldingi davrlardagi tarixiga oid raqamli arxivlar uchun platforma mavud.

**YouTube video** xostingda juda katta miqdordagi professional videolar, kino, sport, san‘at, ta‘limga oid kanallarni hamda davlat organlari va turli ommabop axborot vositalarining rasmiy kanallarini o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy tarmoq o'quvchilarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda, maktab ta'lim jarayonida ularning fanlarga doir bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda sezilarli darajada ta'sir qildi. Zamonaviy o'quvchi zamonaviy sharoitdagi shaxs sifatida shakllanishi, zamonaviy jamoat haqidagi g'oyalari, shuningdek, o'quvchilarning bilim olish va ijtimoiylashuv jarayonlarida ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda maktab umumiy fanlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy tarmoq maktab ta'limi jarayonida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda sezilarli darajada o'zgartirdi. Zamonaviy o'quvchi bugungi sharoitdagi universal bilimlarga ega bo'lishi raqamli ta'lim mazmunini, elektron kitoblar, virtual muzeylar, raqamlashtirilgan tarixiy arxivlardan foydalanishga egadir. Shuningdek, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning raqamli usullarini 3D ko'rinishli variativ, moslashuvchan, adaptiv ish turlari bilan uzviy monitoring qilish munosabatida shakllantirish mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarni ta'lim tarbiya jarayonidagi ta'sirini tushunish uchun o'quvchi yoshlar ongida ijtimoiy tarmoqlar qanday shakllanganini, o'quvchilarning qanday guruhlarga azo ekanligini aniqlash va bu guruhlarni muhokama qilish zarur. Bugungi dunyoda o'quvchi yoshlarning internet va ijtimoiy media ilovalardan ipad, planshet, ish stollari, noutbuk va smartfon kabilar orqali kirishi mumkin. Ijtimoiy tarmoq bugungi maktab o'quvchilarining ijtimoiy hayotining ajralmas qismi bo'lib ulgurgan. Zamonaviy dunyoda ijtimoiy tarmoq va ta'lim yonma-yon turadi desak xato bo'lmaydi. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar bilan bir qatorda uy vazifalarini bajarish jarayoni tushunmaganlarini do'stlari va o'qituvchilari bilan muloqot qilish orqali bajaradilar. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda qatnashishi uchun o'qituvchi bilan uchrashishi shart emas. Ijtimoiy tarmoqlar orqali ma'lumot almashishi olgan vazifalarini o'qituvchiga tekshirtirishi mumkin. Hattoki, amerikalik ba'zi o'qituvchilar Fasebook tarmog'i orqali keshqurun o'quvchilari bilan jonli bog'lanib ularga uxlashdan oldin hikoyalar o'qib berishar ekan. Bundan tashqari ota-onalar ijtimoiy tarmoqlar vositasida o'quvchilarning maktabdagi o'qish jarayonidagi yutuqlarini kuzatib borishga yordam beradi. Fasebook yoki Twitter tarmoqlari orqali ota-onalar maktab bilan bog'liq tadbirlar, loyihalar va maktabda sodir bo'layotgan voqealar haqida ma'lumot olishlari mumkin. Bularning barchasi ijtimoiy tarmoqlarning maktab va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlariga ijobiy ta'siridir, chunki ota-onalar farzandlarining maktabdagi o'quv va shaxsiy yutuqlarini o'rganadilar, nazorat qiladilar uyda farzandlarining bilim va ko'nikmalarini yanada rivojlantirishga yordam beradi.



O'quvchilar odatda maktabdagi o'qish va yozishdan zerikishlari kuzatiladi, biroq bunday paytda internet va ijtimoiy tarmoqlardagi diqqatni tortadigan animatsiyalarni o'z ichiga olgan ko'plab onlayn ma'lumotlarni taqdim etish va mavzuga doir onlayn xabarlar, sharhlar, yangiliklar, taqdim etish orqali ularga kuch bag'ishlaydilar hamda ijtimoiy media saytlar ko'pincha interaktiv bo'lib o'quvchilarni o'ziga jalb etadi..

Ijtimoiy tarmoqlarning ta'limdagi yana bir yutug'i va afzalligi bu masofaviy ta'lim imkoniyatlaridir. Tez orada bu zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylanadi. Bugungi kunda Skyre orqali jonli ma'ruzalar yoki Webinar Jam orqali veb-seminarlar o'tkazish orqali dunyoning chekka hududida yashovchi talabalarga ham ta'lim olish imkoniyatlarini beruvchi yo'ldir. Shu sababli ham bepul ovozli va video qo'ng'iroqlarni amalga oshirish, hujjatlarni almashish boshqa har qanday turdagi ma'lumotlarni taqdim etish imkonini beruvchi media platformalar o'quvchilarning o'quv samaradorligini bilimlarini yaxshilashda yuqori samara berishligi bilan izohlanadi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish, zamonaviy sharoitdagi universal bilimlarga ega bo'lishni, raqamli ta'lim mazmunini, elektron kitoblar, virtual muzeylar, raqamlashtirilgan tarixiy arxivlardan foydalanish, 2D va 3D o'lchamli grafikalarini qurishga doir alohida dasturlarni o'rganish samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak ijtimoiy tarmoq odamlarni faqat bir-biri bilan muloqot qilishi uchun emas balki turli sohalarda jumladan, ta'limda ham katta o'zgarishlarni amalga oshirayotgan yangi tarmoqlardan biridir. Yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smir yoshidagilarning 90% ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi. Ular nafaqat muloqot qilish uchun balki, ma'lumot yig'ish, biror mavzuga doir fikr almashish va boshqa ko'plab imkoniyatlaridan foydalanadi. Bugungi kunda jahon hamjamiyati ijtimoiy tarmoqlarning maktab ta'limini rivojlantirishdagi rolini yuqori baholamoqda, chunki bu o'quvchilar o'rtasida turli g'oyalar asosida platformalar ishlab chiqilishiga olib keladi. Ammo tangananing ikkinchi tomoni bo'lganidek, ijtimoiy tarmoqlarning ta'lim tarbiya jarayoniga ijobiy ta'siri bilan birgalikda salbiy tomoni ham bor. Tadqiqotchi olimlar Fasebook, Google va boshqa tarmoq saytlarida o'quvchilarning juda ko'p vaqt sarflashi sabr-toqatini yo'qotishiga olib keladi, yani bunda ular sahifalarning tez-tez o'tishiga moyil bo'lib qoladi. Shuni aytish joizki ijtimoiy tarmoqlardan maqsadsiz foydalanishdan vos kechish buning o'rniga virtual dunyoning o'rganishga targ'ib qilish muhimdir.

Ta'lim muassasalari, kompaniyalar, turli rasmiy va norasmiy tashkilotlar ijtimoiy tarmoqlardan tajriba almashish, turli ma'lumotlar va o'quv



materiallarini targ'ib qilish, mavzuga oid turli fikrlar, sharhlar bilan bo'lishishda foydalanadilar. Facebookda o'qituvchi ma'lum bir kurs yoki modul bo'yicha ma'lumot, g'oyalar, viktorinalar, so'rovnomalalar, turli materiallar, rasmlar hamda ochiq va yopiq guruhlar yaratish mumkin. O'quvchilar o'z sinfiga oid masalalar, ularda bo'lishi mumkin bo'lgan savollar, o'zaro qiziqarli savollarni javob berishi mumkin. Twitter elektron ta'limda bir mavzu yoki voqea bo'yicha o'quv jamoalari yoki sinflarni bog'lash, rasm yuklash va hk foydalaniladi

O'quvchilarni ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda "geografiya", "tarix", "huquq", "adabiyot", ... kabi fanlar orqali o'quvchilarning yosh intellektual faolligi oshadi hamda maktab muhitida o'z qobiliyatlarini yanada shakllantirib boradi.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni. // <https://lex.uz/docs/4800657> // Murojaat qilingan vaqt 29 avgust 2020y.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi. <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidentishavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.

3. Асмолов А., Семенов А., Уваров А. Мы ждем перемен. // Дети в информационном обществе. - 2010. - №5. С.18-27.

4. Gulhayo Bakhodirovna Kuzmanova, Approaches of mathematical and pedagogical scientists in the teaching of textual problems in general secondary schools. Current research journal of pedagogics 2(8): 80-83, August 2021 DOI:

#### РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining zamonaviy jamiyat haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda, shuningdek, o'quvchilarning ta'lim va ijtimoiy jarayonlarda ijtimoiy kompetentsiyasini rivojlantirishida umumta'lim fanlari katta ahamiyatga ega. Jamiyatimizda ro'y berayotgan o'zgarishlar o'qitishning yangi usullarini, inson shaxsini rivojlantirish bilan bog'liq pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishni, o'quvchilarda yuzaga keladigan muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantirish haqida fikr yuritilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются общеобразовательные дисциплины, имеющие большое значение в формировании представлений учащихся общеобразовательных учреждений о современном обществе, а также в развитии социальной компетентности учащихся в образовательных и социальных процессах. Происходящие в нашем обществе изменения предполагают освоение новых методов обучения, педагогических технологий, связанных с развитием человеческой личности, развитие у учащихся способности решать возникающие проблемы.

#### SUMMARY

This article discusses general education disciplines that are of great importance in the formation of students' ideas of general education institutions about modern society, as well as in the development of students' social competence in educational and social processes. The changes taking place in our society presuppose the development of new teaching methods, pedagogical technologies related to the development of human personality, the development of students' ability to solve emerging problems.